



## HAYOT DAVOMIDA TA'LIM OLIH: YANGI PARADIGMALAR VA KUTILADIGAN NATIJALAR

FAN, TA'LIM VA AMALIYOT INTEGRATSIYASI

ISSN: 2181-1776

**Usmonov Abdurashid Norbo'tayevich**

*Samarqand viloyati XTXQTMOHM o'qituvchisi*

### MAKTAB O'QUVCHILAR ORASIDA HUQUQBUZUZARLIK VA JINOYATCHILIK PROFILAKTIKASINI YANADA TAKOMILLASHTIRISH

**Annotatsiya.** Maktab o'quvchilari jinoyatchiligini profilaktikasiga doir faoliyatning tahlili, huquqbuzarliklar profilaktikasining yo'nalishlarini rivojlantirish zarurati mavjudligi hamda yo'nalishlarni takomillashtirish

**Tayanch so'zlar:** Maktab o'quvchilari huquqbuzuzarligi profilaktikasi, o'quvchilar jinoyatchiligining profilaktikasi, huquqbuzarliklarni oldini olish, jinoyatchiligini oldini olish, huquqbuzarliklarni oldini olish yo'nalishi, jinoyatchiligini oldini olish yo'nalishi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning «Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O'zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini qo'llab-quvvatlash to'g'risida»gi 2017 yil 5 iyuldagi PF-5106-sonli Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 27 martdagi «Huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 5153-sonli qarori malaka oshirish tizimida deviant xulqli o'quvchilar bilan ishlashni jonlantirish, o'quvchilar orasida huquqbuzarlikning oldini olish masalalariga e'tiborni kuchaytirish, pedagogik va psixologik korreksiya metodlariga murojaat etish kabi tadbirlarga keng qamrovli e'tibor qaratishni taqozo etmoqda.

Maktab o'quvchilari huquqbuzuzarligi va jinoyatchiligi o'tmishda ham, hozirda ham dolzarb muammolardan biri bo'lib kelgan. Kelajakda ham shunday bo'lib qoladi,



chunki o'quvchilar millatning, xalqning, davlatning kelajagini belgilab beruvchi kuchdir. Maktab o'quvchilari huquqbuzarligi va jinoyatchiligining yana bir ahamiyatli jihati shundaki, u barvaqt profilaktikaning asosiy obyektlaridan biri hisoblanadi.

Mamlakatimizda sud-huquq sohasida olib borilayotgan islohotlar natijasida huquqbuzarliklar profilaktikasiga keng jamoatchilik jalb etildi hamda jamoat tartibini saqlash va huquqbuzarlikning barvaqt oldini olish borasidagi ishlar tizimli yo'lga qo'yildi. Natijasida 2018 yilda profilaktik hisobda bo'lgan 3,5 mingga yaqin o'quvchilar bilan manzilli chora-tadbirlar olib borildi. Davomat tadbirlari davomida 8 mingga yaqin o'g'il-qiz, shundan 3 mingdan ziyodrog'i maktab, qolganlari litsey va kollej o'quvchisi o'z ta'lim muassasalariga qaytarildi. Ularni sport, fakul'tativ to'garaklar, "Barkamol avlod" markazlari va biznes shahobchalariga jalb etish choralari ham ko'rildi. Shu orqali jinoyat sodir etgan o'quvchilar soni 1 ming 565 nafardan 973 nafarga yoki 37,8 foizga kamayishiga erishildi.

Ichki ishlar organlarining mahalla faollari, Xotin-qizlar qo'mitasi, Yoshlar ittifoqi, prokuratura va boshqa organlar bilan olib borgan hamkorligi natijasida 2018 yilda 2 ming 301 mahallada bironta ham jinoyat sodir etilmadi. Umumiy jinoyatchilik esa 2018 yilda o'tgan 2017 yilga nisbatan 33,5 foizga kamaydi<sup>1</sup>.

Erishilgan natijalarga qaramasdan, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek, «Maktab o'quvchilari huquqbuzarliklarning oldini olish masalalarini samarali yechish ustuvor vazifalarimizdan biri bo'lib qoladi». Chunki «bitta bo'lsa ham jinoyat bo'lgani hammamizni tashvishga solishi kerak».

Shu boisdan 2019 yilning 10 yanvar kuni o'tkazilgan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Xavfsizlik kengashining kengaytirilgan yig'ilishida Prezidentimiz tomonidan mutasaddi tashkilotlar zimmasiga respublikaning barcha tuman (shahar)lari bo'yicha ilmiy yondashuvlar asosida huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish, jinoyatchilikni jilovlash hamda jamoat xavfsizligini ta'minlash yuzasidan yangi metodika va o'ziga xos tajriba yaratishga doir vazifalar yuklatildi.

Olib borilgan ilmiy izlanishlar, kuzatishlar natijasida o'quvchilar jinoyatchiligining profilaktikasiga doir faoliyatning tahlili huquqbuzarliklar profilaktikasining quyidagi yo'nalishlarini yanada takomillashtirish zarurati mavjudligini ko'rsatdi:

➤ **birinchi yo'nalish** – o'quvchilar huquqbuzarligi va jinoyatchiligi profilaktikasining nazariy asoslarini takomillashtirish.

«Huquqbuzarliklarning oldini olish»ning 12.00.08 – ixtisosligi bo'yicha tadqiq etiladigan jinoyat huquqi, kriminologiya va jinoyat-ijroiya huquqi fanlari qatoriga kiritilganligi, shuningdek, huquqbuzarliklar profilaktikasini kriminologiya fanidan mustaqil fan sifatida ajralib chiqqanligi ushbu yo'nalishda ilmiy tadqiqotlar olib borish ko'lamining kengaytirilishini talab etadi. Aks holda, huquqbuzarliklar profilaktikasi nazariyasi amaliyotdan orqada qolib ketadi.

Bu esa quyidagi muammoli masalalar bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borish zaruratini dolzarblashtiradi:

<sup>1</sup>Бобожонов П. (Ўзбекистон Республикаси Ички ишлар вазири): Одамлар тинч яшаши учун мамлакатимизда жиноятдан холи муҳит яратилади. //http://uza.uz (15.01.2019й.).



*birinchidan*, o'quvchilar jinoyatchiligining profilaktikasi amaliyotiga tatbiq etilgan «huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish», «jinoyatchilikni jilovlash» kabi tushunchalarning mohiyatini ochib berish va ilmiy asoslash;

*ikkinchidan*, huquqbuzarliklar profilaktikasining turlari va ular doirasida amalga oshiriladigan chora-tadbirlar o'rtasidagi noaniqlik va tushunmovchiliklarga oydinlik kiritish;

*uchinchidan*, huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshirishning taktik jihatlarini ishlab chiqish, ularning mohiyati va mazmunini ilmiy asoslash;

*to'rtinchidan*, o'quvchilarga kelgusida ularning jinoyat sodir etish yoki jinoyatdan jabrlanish ehtimoli nuqtai nazaridan individual tashxis qo'yish metodikasini ishlab chiqish;

*beshinchidan*, huquqbuzarliklar profilaktikasi usul va shakllarining metodologik asoslarini yaratish;

*oltinchidan*, huquqbuzarliklar profilaktikasi subyektlari doirasini kengaytirish, ularning optimal tizimini shakllantirish va vakolatlarini aniqlashtirish;

*yettinchidan*, o'quvchilar jinoyatchiligining profilaktikasini amalga oshirish davriga qarab quyidagi bosqichlarga ajratish va profilaktik ishlarni mazkur bosqichlar asosida tashkil etishning nazariy asoslarini ishlab chiqish:

birinchi bosqich: o'quvchilar jinoyatchiligini barvaqt oldini olish;

ikkinchi bosqich: o'quvchilar jinoyatchiligi oqibatlarining oldini olish;

uchinchi bosqich: o'quvchilar jinoyatchiligining sabablari va unga imkon bergan shart-sharoitlarni aniqlash, bartaraf etish, voyaga yetmagan jinoyatchilarni axloqan tuzatish;

to'rtinchi bosqich: jinoyatdan jabrlangan, shuningdek, jazoni ijro etish muassasasidan ozod etilgan o'quvchilarni ijtimoiy reabilitasiya qilish va ijtimoiy moslashtirish;

beshinchinchi bosqich: og'ir va o'ta og'ir jinoyat sodir etib jamoat xavfsizligi va jamoat tartibiga, shaxs, jamiyat va davlat manfaatlariga tajovuz qilgan, ekstremistik qarashlarga ega, axloqan tuzalish yo'lga kirmagan o'quvchilarni alohida tartibda nazorat o'rnatish tartibini ishlab chiqish.

➤ **Ikkinchi yo'nalish** – o'quvchilar huquqbuzuzarliligi va jinoyatchiligi profilaktikasiga doir normativ hujjatlardagi bo'shliq, kamchilik va o'zaro nomuvofiqliklarni bartaraf etish:

O'quvchilar huquqbuzuzarliligi va jinoyatchiligi profilaktikasiga doir normativ hujjatlar tahlili hamda huquqbuzarliklar profilaktikasi subyektlari faoliyatini o'rganish natijalari O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi hamda Jinoyat-prosessual kodekslarida huquqbuzarliklarning sabablari va ularning sodir etilishiga imkon berayotgan shart-sharoitlarni aniqlash va bartaraf etish, shuningdek, «O'quvchilar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida»gi qonunida o'quvchilarning umumiy, maxsus va viktimologik (*Viktimologiya ma'lum bir kriminologik nazariya, yordamchi fan va jinoyat jabrlanuvchisining umumiy nazariyasi sifatida*) profilaktikasini hamda «Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida»gi qonunida nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolarning huquqbuzarliklar profilaktikasidagi



ishtirokini aniq huquqiy tartibga solish bilan bog'liq ayrim bo'shliq, kamchilik va o'zaro nomuvofiqliklar mavjudligini ko'rsatmoqda.

Bu esa ushbu qonunlarni yangi tahririda qabul qilishda mazkur muammolarni bartaraf etish, shuningdek, nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolarning huquqbuzarliklar profilaktikasidagi ishtirokini huquqiy tartibga solish, qolaversa huquqbuzarliklar profilaktikasini bevosita amalga oshiruvchi organlar va muassasalarning huquqbuzarliklar profilaktikasiga doir faoliyatini tartibga soluvchi idoraviy normativ hujjatlarini ishlab chiqish zaruratini keltirib chiqaradi.

**Uchinchi yo'nalish** – jamiyatda sog'lom ijtimoiy muhitning barqarorligini kafolatlovchi umuminsoniy, milliy, diniy qadriyatlarining ta'sirchanligini mustahkamlash, mazkur qadriyatlarni zamon, taraqqiyot bilan hamohang tarzda rivojlantirish, mahalliy, oilaviy, huquqiy va kasbiy qadriyatlarni shakllantirish.

Qadriyatlarining o'quvchilar huquqbuzuzarligi va jinoyatchiligi profilaktikasidagi o'rni va roli juda katta. Biroq jahon Internet axborot tarmog'i imkoniyatlari kengayib, dunyoda global axborot almashinuvining tezlashishi, yot g'oyalarning o'quvchilar ongi va dunyoqarashiga ta'siri tobora kuchayib borayotganligi mavjud qadriyatlarining ta'sirchanligini susaytirmoqda.

Ushbu yo'nalishda quyidagi ishlarning amalga oshirilishini maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz:

*birinchisi*, voyaga yetmaganning ma'naviyati va madaniyatini yuksaltirishga, dunyoqarashini kengaytirishga yo'naltirilgan qadriyatlar tizimini rivojlantirish hamda jamiyatda ularning qadrini oshirish va mustahkamlash;

*ikkinchisi*, bu borada ommaviy axborot vositalari, xususan, radio va televideniyelarning rolini va mas'uliyatini yanada kuchaytirish (ushbu yo'nalishda ommaviy axborot vositalari faoliyatini takomillashtirish konsepsiyasini ishlab chiqish);

*uchinchisi*, o'quvchilarda ma'naviy-axloqiy fazilatlarini shakllantirish va rivojlantirishga xizmat qiluvchi, uni komillikka yetaklovchi epizodlarga boy milliy seriallar, kinofilmlar, multfilmlar, spektakllar, shuningdek, ijtimoiy reklama va roliklarni yaratish hamda xalqqa tizimli ravishda namoyish etish;

*to'rtinchisi*, yoshlar ongiga milliy g'oyalarning mazmunini singdirish orqali ularning har bir fuqaro, davlat xizmatchisi uchun hayotiy va kasbiy faoliyat mezonini hamda milliy prinsiplar sifatida tan olinishiga erishish;

*beshinchisi*, umume'tirof etilgan axloq-odob normalarini ishlab chiqish va keng ommaga targ'ib qilish.

Takomillashtirishning *to'rtinchi yo'nalishi* – o'quvchilar huquqbuzuzarligi va jinoyatchiligi profilaktikasiga innovasion modellarni joriy etish:

Innovasiyaning ahamiyat darajasiga yetarlicha baho bergan Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev o'z ma'ruzalarida «Xalqimiz dunyoqarashida innovasiya muhitini yaratish eng muhim vazifamizdir. Innovasiya bo'lmas ekan, hech bir sohada raqobat, rivojlanish bo'lmaydi. Bu sohadagi o'zgarishlarni xalqimizga keng targ'ib qilmasak, odamlarda ko'nikma paydo qilmasak, bugungi davr shiddati, fan-texnikaning mislsiz yutuqlari bilan hamqadam bo'lolmaymiz» deb ta'kidlaydilar.





Shu boisdan, o'quvchilar huquqbuzzarligi va jinoyatchiligi profilaktikasiga innovasion modellarni joriy etish o'z dolzarbligiga ega. Bu borada quyidagi vazifalarning amalga oshirilishini maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz:

*birinchisi*, sodir etilgan jinoyatlarning turlariga ko'ra «jinoyatlarning sodir etilishi sabablari va ularga imkon bergan shart-sharoitlar», «jabrlanuvchilarning viktim (*Viktimologiya ma'lum bir kriminologik nazariya, yordamchi fan va jinoyat jabrlanuvchisining umumiy nazariyasi sifatida*)xulq-atvori», «jinoyat sodir etgan shaxslarning kriminal xulq-atvori» bo'yicha elektron hisob kartochka (varaqa)larini to'ldirish orqali markazlashgan elektron ma'lumotlar bazasi yuritilishini yo'lga qo'yish;

*ikkinchisi*, hududlarning «geokriminologik xaritasi»ni ishlab chiqish hamda ulardan jinoyatchilikka qarshi kurashish va huquqbuzzarliklar profilaktikasi ishlarini tashkil etishda foydalanish amaliyotini yo'lga qo'yish;

*uchinchisi*, jamoat joylarida «intellektual kameralar»dan foydalanish imkoniyatini kengaytirish, bu borada kameralarni o'rnatish va ulardan foydalanish tartibini belgilash;

*to'rtinchisi*, sodir etilgan jinoyatlar, latent (*latent-yashirin davr*) jinoyatlar, qidiruvdagi shaxslar haqida anonim tarzda ma'lumotlar va audio, video, fotolavhalarni yuborish imkonini beradigan «ishonchli anonim xabarlar» maxsus sayt faoliyatini yo'lga qo'yish.

O'ylaymizki, yuqorida o'quvchilar huquqbuzzarligi va jinoyatchiligi profilaktikasining takomillashtirilishini ko'zlab ilgari surilgan taklif va tavsiyalar kelgusida, *birinchidan*, o'quvchilar huquqbuzzarligi va jinoyatchiligi profilaktikasi muammolari bo'yicha amalga oshiriladigan tadqiqotlar yo'nalishlarini belgilab olishga; *ikkinchidan*, o'quvchilar jinoyatchiligi profilaktikasiga doir qonunchilikni takomillashtirish va huquqni qo'llash amaliyoti samaradorligiga erishishga; *uchinchidan*, jamiyatda sog'lom ijtimoiy muhit barqarorligini ta'minlashga yo'naltirilgan qadriyatlar tizimining ta'sirchanligini oshirishga, *to'rtinchidan*, o'quvchilar huquqbuzzarligi va jinoyatchiligi profilaktikasi amaliyotiga innovasion texnologiyalarni joriy etishga xizmat qiladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi. – Toshkent: “O'zbekiston» NMIU, 2017.

2. O'zbekiston Respublikasining «Voyaga yetmaganlar orasida nazoratsizlik va huquqbuzzarliklarni oldini olish to'g'risida»gi Qonuni (2010 y.)

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi “O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar stretegiyasi to'g'risida»gi PF-4947-sonli Farmoni.//O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to'plami.– T., 2017y., 39 – b.

4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Huquqbuzzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-2833-sonli Qarori. – Toshkent, 2017 yil 14 mart.

5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Huquqbuzzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 5153-sonli Qarori. – Toshkent, 2017 yil 27 mart.